“O‘zkimyosanoat” AJ "Uzbek Import Fair 2025" I-xalqaro ko‘rgazmasida ishtirok etmoqda

// 07.10.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-uzbek-import-fair-2025-i-xalqaro-ko-rgazma



Poytaxtimizda “Mahalliy kontentni oshirishda importni optimallashtirish” mavzusidagi "Uzbek Import Fair 2025" I-xalqaro ko‘rgazmasi o‘z ishini boshladi.



7-9-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan ko‘rgazmada O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish imkoniyati yuqori bo‘lgan, ammo eng ko‘p import qilinayotgan 3 ming turdagi tovarlar namoyishga qo‘yilgan.




Xususan, “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan ham 30dan ortiq import qilinayotgan

mahsulotlar hamda doimiy import qilinayotgan materiallar va butlovchi qismlar o‘zlashtirish uchun namoyish qilinmoqda. Kimyo sanoati mahsulotlari, parfyumeriya, kosmetika va shaxsiy gigiyena vositalari, shuningdek, mahalliylashtirish dasturi va sanoat kooperatsiya aloqalari doirasida importni optimallashtirish borasida olib borilayotgan amaliy ishlar to‘g‘risidagi taqdimot materiallari taqdim qilinmoqda.



Shu bilan birga, respublikada joylashgan tadbirkorlik subyektlarining talab yuqori bo‘lgan qiymati 280 mln dollardan ziyod 26 turdagi kimyoviy mahsulotlari ham ko‘rgazmadan o‘rin olgan.

Ta’kidlash joiz, ichki bozorda import tovarlariga nisbatan real ehtiyoj hajmi bilan tanishish orqali mahalliy tadbirkorlar o‘z bizneslarini yanada kengaytirish imkoniga ega bo‘lishadi.


KIMYO MAHSULOTLARI


KIMYO MAHSULOTLARI
AXBOROT STENDI
Uzkimyosanoat
Uzkimyosanoat
Rainbow



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati